

2-QISM

MISOL: Natriy sulfatning 150 g 20% li eritmasiga 300 ml suv qo'shildi. Olingan eritmaning proent konsentratsiyasi qanday bo'ladi? a) 10,04 b) 8,16 c) 6,66 d) 5,2 e) 12

YECHIM: $0,2 \cdot 150 = 30$ g tuz bor. $150 + 300 = 450$ g eritma $C\% = \frac{30}{450} \cdot 100 = 6,66\%$

- 60% li eritma tarkibidagi suvning massasi uch barobar ko'paytirildi. Xosil bo'lgan eritmaning massa ulushini hisoblang.
a) 20 b) 15 c) 28 d) 33 e) 35
- 80 g 15% li eritmaga 20 g suv qo'shildi. Xosil bo'lgan eritmadagi moddaning massa ulushi (%) qanday bo'ladi?
a) 13,0 b) 10,9 c) 12,0 d) 12,6 e) 11,4
- Osh tuzini massa ulushi 0,15 bo'lgan 200 g eritmasiga 400 g suv qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini toping.
a) 0,1 b) 0,3 c) 0,3 d) 0,4 e) 0,05
- Kaliy nitratning massa ulushi 0,2 bo'lgan 700 g eritmasiga 300 ml suv qo'shildi. Eritmadagi kaliy nitratning massa ulushini toping.
a) 0,01 b) 0,03 c) 0,14 d) 0,05 e) 0,06
- Magniy xloridning massa ulushi 0,04 bo'lgan 400 g eritmasi 400 g suv qo'shildi. Eritmadagi magniy xloridning massa ulushini (%) toping.
a) 32 b) 8 c) 16 d) 4 e) 2
- 250 g 10% li natriy gidroksid eritmasiga 150 g suv qo'shildi. Xosil bo'lgan eritmadagi ishqorning massa ulushini (%) aniqlang.
a) 6,25 b) 8,85 c) 5,50 d) 9,25 e) 10,25
- 8% li 150 g osh tuzi eritmasiga 50 g suv qo'shildi. Xosil bo'lgan eritmaning konsentratsiyasini (%) toping. a) 6 b) 3 c) 9 d) 13 e) 7
- Massa ulushi 0,2 bo'lgan osh tuzining 200 g eritmasiga 40 g tuz qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini toping.
a) 0,25 b) 0,40 c) 1,0 d) 0,33 e) 0,38
- Massa ulushi 0,2 bo'lgan osh tuzining 150 g eritmasiga 50 g osh tuzi qo'shildi. Eritmadagi osh tuzining massa ulushini toping a) 0,37 b) 0,40 c) 0,54 d) 0,63 e) 0,75
- Kaliy xloridning massa ulushi 0,03 bo'lgan 500 g eritmasi bug'latilishi natijasida eritma massasi 300 g ga kamaydi. Qolgan eritmadagi kaliy xloridning massa ulushini toping.
a) 0,15 b) 0,02 c) 0,05 d) 0,075 e) 0,08
- Kaliy nitratning massa ulushi 0,06 bo'lgan 400 g eritmasi bug'latilishi natijasida eritma massasi 200 g ga kamaydi qolgan eritmadagi kaliy nitratning massa ulushini toping.
a) 0,24 b) 0,08 c) 0,09 d) 0,12 e) 0,04
- Shakarning massa ulushi 0,03 bo'lgan 20 kg eritmasi qaynatildi. Eritma massasi 2 kg kamayganda, qaynatish to'xtatildi. Eritmadagi shakarning massa ulushini toping.
a) 0,30 b) 0,36 c) 0,033 d) 0,38 e) 0,15
- 10% li 20 g CuCl_2 eritmasiga 10 g suv va 5 g CuCl_2 tuzi qo'shildi va eritma massasi 2 marta kamayguncha bug'latildi. So'nggi eritmadagi tuzning massa ulushini (%) toping. a) 40 b) 25 c) 20 d) 17,5 e) 33,3
- 25% li tuz eritmasiga unnga nisbatan 2,5 marta og'irroq bo'lgan 10% li eritma qo'shildi. Olingan eritmaning (%) konsentratsiyasini aniqlang.
a) 14,3 b) 15,6 c) 10,0 d) 12,4 e) 18,3

@chemm